



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 274 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelsbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissinging psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyurayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

“Mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	
Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi	202
Rashidova Nodira Xabibullayevna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida.....	205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna	
Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich	
Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi	214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
Norova Nargiza Xalmamat qizi	
Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil.....	224
Abduraxmonov Abdumo'min	
Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi	228
Baxronov Rustam Rajabovich	
O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi.....	231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li	
Husnixatga o'rgatish tamoyillari.....	235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna	
O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi.....	240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	
Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari	245
Sangirova Nilufar Sayfiddinovna	
O'smirlilik davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar	251
Usmonova Munira Sayfiddinovna	
Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar samaradorligi	256
Axmedova Munavvar Numanjanovna	
Tarix darslarida wordmint: o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirishning innovatsion usuli	261
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari	265
Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li	
Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik modeli	269
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	

NUTQ BUZILISHLARI MAVJUD BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK INTERVENSIYALAR SAMARADORLIGI

Axmedova Munavvar Numanjanovna
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Nutqdagi kamchiliklar bolaning tengdoshlari bilan muloqot qilishiga, hissiy holatiga, o'zini baholashiga hamda ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli psixologik qo'llab-quvvatlash va maqsadli intervension dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish hamda emotsional barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Xususan, o'yin terapiyasi, kognitiv-xulqiy yondashuv, guruhli mashg'ulotlar va ota-onalar bilan hamkorlikdagi psixologik ish shakllarining natijalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy integratsiya, muloqot faolligi va ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga psixologik intervensiyalar ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: nutq buzilishi, ijtimoiy moslashuv, psixologik intervensiya, kommunikativ ko'nikmalar, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy integratsiya, emotsional rivojlanish.

Abstract: This article examines the effectiveness of psychological interventions in improving social adaptation among children with speech disorders. Speech impairments significantly affect children's communication abilities, emotional well-being, self-esteem, and interaction with peers. Therefore, psychological support and targeted intervention programs play an important role in promoting successful social functioning. The study focuses on psychological approaches aimed at developing communication skills, enhancing social adaptation, and strengthening emotional stability. In particular, the effectiveness of play therapy, cognitive-behavioral approaches, group-based activities, and parent-oriented psychological support is discussed. The findings indicate that psychological interventions contribute positively to social integration, increased communication activity, and the development of social competencies among children with speech disorders. The results emphasize the importance of early psychological support and interdisciplinary cooperation in achieving better adaptation outcomes.

Key words: speech disorders, social adaptation, psychological intervention, communication skills, child psychology, social integration, emotional development.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность психологических интервенций в развитии социальной адаптации детей с нарушениями речи. Речевые нарушения оказывают значительное влияние на коммуникативную активность ребенка, его эмоциональное состояние, самооценку и процесс взаимодействия со сверстниками. В связи с этим особую значимость приобретают психологическая поддержка и применение специализированных интервенционных программ. В исследовании анализируются методы, направленные на развитие коммуникативных навыков, повышение уровня социальной адаптации и укрепление эмоциональной устойчивости детей. Особое внимание уделяется игровой терапии, когнитивно-поведенческому подходу, групповым формам работы и взаимодействию с родителями. Полученные результаты показывают, что использование психологических интервенций способствует улучшению социальной интеграции, расширению коммуникативных возможностей и формированию социальных компетенций у детей с нарушениями речи.

Ключевые слова: нарушения речи, социальная адаптация, психологическая интервенция, коммуникативные навыки, детская психология, социальная интеграция, эмоциональное развитие.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim va psixologiya amaliyotida bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalasi eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nutq buzilishlari mavjud bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ta'lim muhitiga moslashuvi hamda samarali kommunikativ faoliyatni shakllantirishi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Nutq insonning asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, uning yordamida shaxs atrof-dagilar bilan o'zaro munosabat o'rnatadi, hissiyot va fikrlarini ifodalaydi, ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi hamda shaxsiy rivojlanish jarayonini amalga oshiradi. Shu sababli bolalik davrida yuzaga keladigan nutq buzilishlari nafaqat til va nutq faoliyatiga, balki bolaning psixologik rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Nutq buzilishlari - bu nutqning shakllanishi, qabul qilinishi yoki ifodalanishidagi turli darajadagi buzilishlar bo'lib, ularga fonetik-fonematik rivojlanishdagi kamchiliklar, umumiy nutq rivojlanmaganligi, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, alaliya va boshqa holatlar kiradi. Bunday buzilishlar bolalarda muloqot qilishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, tengdoshlar bilan munosabatlarning cheklanishiga, ijtimoiy faollikning pasayishiga va o'ziga nisbatan ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin. Nutqiy nuqson mavjud bo'lgan bolalarda ko'pincha uyatchanlik, xavotirlilik, ijtimoiy chekinish, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik hamda kommunikativ tashabbusning pastligi kuzatiladi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyat talablari, ijtimoiy normalar va atrof-muhit sharoitlariga mos ravishda o'z xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish jarayonidir. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi ularning ta'limdagi natijalari, tengdoshlari bilan munosabatlari, emotsional farovonligi va kelajakdagi shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlari mavjud bolalarda esa ushbu jarayon murakkablashadi, chunki kommunikativ cheklovlar ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va saqlash imkoniyatlarini kamaytiradi.

Psixologik intervensiyalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Psixologik intervensiya deganda bolaning emotsional, ijtimoiy va xulqiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan maqsadli psixologik ta'sir usullari tushuniladi. Mazkur yondashuv tarkibiga individual va guruhli psixologik mashg'ulotlar, o'yin terapiyasi, kognitiv-xulqiy metodlar, art-terapiya, kommunikativ treninglar hamda ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari kiradi. Ushbu metodlar bolaning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, emotsional zo'rliqishni kamaytirish, o'zini baholashni yaxshilash va muloqotdagi faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda nutq buzilishlari va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdan boshlab tashkil etilgan psixologik va pedagogik yordam bolalarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish hamda ularning jamiyatga integratsiyasini yengillashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, multidisiplinar yondashuv - ya'ni psixolog, logoped, pedagog va ota-onalar hamkorligi asosida olib borilgan intervension dasturlar ijobiy natijalarni ta'minlaydi.

Bugungi kunda inkluziv ta'limning rivojlanishi, maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining kuchayishi hamda psixologik xizmatlarning kengayishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish orqali ularning ta'lim sifati, ijtimoiy faolligi va hayot sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi - nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda samarali psixologik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari psixologlar, logopedlar, pedagoglar hamda ota-onalar faoliyatida amaliy ahamiyat kasb etishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish hamda ushbu jarayonda psixologik intervensiyalarning samaradorligini o'rganish zamonaviy psixologiya, defektologiya, logopediya va maxsus pedagogikaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nutqning faqat lingvistik hodisa emas, balki shaxs rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va psixologik farovonlik bilan uzviy bog'liq murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli nutq buzilishlari mavjud bolalarni o'rganishda biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni birgalikda tahlil qiluvchi kompleks yondashuv ustunlik qilmoqda.

Nutq rivojlanishi va ijtimoiylashuv o'rtasidagi bog'liqlik masalasi dastlab klassik rivojlanish psixologiyasi doirasida yoritilgan. Rus psixologik maktabi vakillari orasida ayniqsa L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari mazkur yo'nalish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Vigotskiy nutqni bolaning oliy psixik funksiyalarini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida talqin qilgan va ijtimoiy muhitning rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlagan. Uning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning nutqiy rivojlanishi dastlab ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi, keyinchalik esa ichki nutq va tafakkur tizimiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nutq buzilishlari bolaning nafaqat til faoliyatini, balki ijtimoiy tajribani egallash va shaxs sifatida shakllanish jarayonini ham murakkablashtiradi.



L.S. Vigotskiy g'oyalarini rivojlantirgan A.R. Luriya nutq faoliyatining neyropsixologik mexanizmlarini o'rgangan va nutq buzilishlarining shaxsning emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslagan. Luriya nutqni markaziy nerv tizimi faoliyati bilan bog'liq murakkab funksional tizim sifatida ko'rib chiqqan va nutqdagi buzilishlar bolaning xulq-atvori, muloqot uslubi hamda moslashuv imkoniyatlariga ta'sir qilishini ko'rsatgan. Olimning fikricha, korreksion ishlar faqat nutqni tiklash bilan cheklanmasdan, bolaning ijtimoiy faoliyatini ham rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Rus defektologiya maktabining yana bir muhim vakili R.E. Levina nutq rivojlanishidagi nuqsonlarni tizimli ravishda o'rgangan. U umumiy nutq rivojlanmaganligi bo'lgan bolalarda nutq komponentlari bilan bir qatorda kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv muammolari ham kuzatilishini ta'kidlagan. Levinaning ilmiy ishlari logopedik va psixologik ta'sirning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Uning tadqiqotlarida bolaning nutqiy faolligi va ijtimoiy moslashuvi o'zaro bog'liq jarayon sifatida baholangan.

E.M. Mastuykova, O.S. Nikolskaya, T.B. Filicheva va G.V. Chirkina kabi rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy va emotsional rivojlanishning o'ziga xos jihatlari o'chib bergan. Ular bunday bolalarda tashabbusning pasayishi, ijtimoiy qo'rquv, muloqotdan qochish va tengdoshlar bilan munosabat o'rnatishda qiyinchiliklar tez-tez uchrashini qayd etganlar. Ayniqsa, Filicheva va Chirkina logopedik korreksiya bilan bir qatorda psixologik qo'llab-quvvatlashni ham tizimli ravishda tashkil etish zarurligini asoslab bergan.

Xorijiy ilmiy maktablarda nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganish ko'proq rivojlanish psixologiyasi va ijtimoiy-kommunikativ yondashuv doirasida olib borilgan. Shveysariyalik olim J. Piaje bolalar kognitiv rivojlanishi jarayonida nutq va ijtimoiy tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bergan. Unga ko'ra, bola tafakkuri va ijtimoiy faoliyati nutq orqali tashkil topadi hamda rivojlanadi. Nutqdagi cheklanishlar esa ijtimoiy o'zaro ta'sirning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Amerikalik psixolog A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali bolaning xulq-atvori muloqot va kuzatish jarayonida shakllanishini ta'kidlagan. Bandura nazariyasiga ko'ra, nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy tajriba olish imkoniyatlarining kamayishi o'z-o'zini baholash va ijtimoiy ishtirok darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ijobiy model yaratish, qo'llab-quvvatlovchi muhit va psixologik treninglar moslashuv jarayonida muhim hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda nutq buzilishlari va psixologik holat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan mualliflardan biri D.H. Skuse hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida kommunikativ buzilishlar mavjud bolalarda ijtimoiy tashvish, emotsional qiyinchiliklar va ijtimoiy izolyatsiya xavfi yuqori ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, C. Conti-Ramsden va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar til rivojlanishidagi buzilishlarga ega bolalarda o'smirlik davrida ijtimoiy moslashuvdagi muammolar saqlanib qolishini ko'rsatgan.

Nutq buzilishlari mavjud bolalarda psixologik intervensiyalarning samaradorligini o'rganishda kognitiv-xulqiy yondashuv alohida o'rin tutadi. A. Beck tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv nazariya asosida tashkil etilgan psixologik yordam dasturlari bolalarda salbiy ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlangan. Bundan tashqari, C. Rogersning insonparvarlik yondashuvi bolaning individual imkoniyatlari va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitning ahamiyatini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda multidisiplinar yondashuv eng yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu modelda psixolog, logoped, pedagog va ota-onalarning hamkorligi asosiy omil sifatida qaraladi. Intervensiya dasturlarga emotsional intellektni rivojlantirish, kommunikativ treninglar, o'yin terapiyasi, guruhli mashg'ulotlar va oilaviy maslahatlar kiritilganda bolalarda ijtimoiy faollik, tengdoshlar bilan munosabat sifati hamda moslashuv ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanishi kuzatilgan.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvi ko'p omilli jarayon bo'lib, uni samarali rivojlantirish uchun faqat logopedik ta'sir yetarli emas. Psixologik intervensiyalarni tizimli ravishda tashkil etish, bolaning emotsional holati va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, yaqin ijtimoiy muhitni faol jalb etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv bolalarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish va ularning shaxsiy rivojlanish salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda miqdoriy (quantitative) tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi rivojlanish psixologiyasi, maxsus psixologiya, logopediya hamda korreksion pedagogika tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida eksperimental yondashuv qo'llanildi, ya'ni dastlab ishtirokchilarning boshlang'ich holati aniqlanib, so'ng maxsus tashkil etilgan psixologik intervensiya dasturi joriy etildi va yakuniy natijalar statistik jihatdan baholandi.



Tadqiqot obyekti sifatida nutq buzilishlari tashxisi qo'yilgan kichik va o'rta maktab yoshidagi bolalar tanlandi. Tadqiqot ishtirokchilari O'zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktablari hamda maxsus ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalar orasidan tanlab olindi. Tanlov jarayonida nutq rivojlanishidagi buzilish darajasi, yosh xususiyatlari va psixologik holat ko'rsatkichlari inobatga olindi. Tadqiqotda jami 60 nafar bola (30 nafar eksperimental guruh, 30 nafar nazorat guruhi) ishtirok etdi.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida O'zbekiston amaliyotida muntazam qo'llaniladigan va ilmiy ishonchliligi tasdiqlangan metodikalardan foydalanildi. Bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash uchun K. Rojers va R. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi" metodikasi (moslashtirilgan variant), kommunikativ faoliyat va shaxslararo munosabatlarni baholash uchun V. F. Ryaxovskiyning kommunikativlik darajasini aniqlash testi, emotsional holatni aniqlash maqsadida esa Lusher rang testi qo'llanildi. Nutq rivojlanishi darajasi logopedik kuzatuv protokollari asosida baholandi. Mazkur metodikalar O'zbekiston ta'lim va psixologik amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan diagnostik vositalar sirasiga kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Intervensiyon bosqich 10 hafta davomida amalga oshirildi. Psixologik ta'sir dasturi haftasiga ikki marotaba tashkil etilib, har bir mashg'ulot 45-50 daqiqa davom etdi. Dastur tarkibiga kommunikativ treninglar, ijtimoiy roli o'yinlar, emotsional o'zini boshqarish mashqlari, guruhli muloqot faoliyatlari hamda ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari kiritildi. Intervensiyaning asosiy maqsadi bolalarda muloqot tashabbusini rivojlantirish, ijtimoiy ishtirokni kuchaytirish va moslashuv ko'rsatkichlarini yaxshilashdan iborat bo'ldi.

Olingan ma'lumotlar IBM SPSS Statistics dasturida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (Descriptive Statistics), juft tanlov uchun t-test (Paired Samples t-test) va guruhlararo farqlarni aniqlash uchun Independent Samples t-test usullaridan foydalanildi. Natijalar statistik ahamiyatlilik darajasi $p \leq 0,05$ mezonida baholandi (1-jadval).

1-jadval: Nutq buzilishlari mavjud bolalarda psixologik intervensiyadan oldingi va keyingi ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari (SPSS dasturi asosida tahlil natijalari)

Ko'rsatkichlar	Eksperimental guruh (n=30) Intervensiya-gacha $M \pm SD$	Eksperimental guruh (n=30) Intervensiya-dan so'ng $M \pm SD$	t	p	Nazorat guruhi (n=30) Boshlang'ich $M \pm SD$	Nazorat guruhi (n=30) Yakuniy $M \pm SD$	t	p
Ijtimoiy moslashuv umumiy indeksi	42,6 $\pm$ 6,8	58,4 $\pm$ 5,3	7,84	0,001	43,1 $\pm$ 6,5	45,0 $\pm$ 6,2	1,17	0,247
Kommunikativ faollik	14,3 $\pm$ 3,1	20,2 $\pm$ 2,6	6,91	0,001	14,8 $\pm$ 2,8	15,6 $\pm$ 3,0	0,96	0,341
Tengdoshlar bilan muloqot sifati	11,7 $\pm$ 2,9	17,5 $\pm$ 2,4	6,58	0,001	12,0 $\pm$ 2,7	12,8 $\pm$ 2,5	1,05	0,301
Emotsional barqarorlik	13,5 $\pm$ 3,3	18,9 $\pm$ 2,7	5,83	0,002	13,8 $\pm$ 3,1	14,2 $\pm$ 3,0	0,74	0,465
Ijtimoiy tashabbus ko'rsatkichlari	10,9 $\pm$ 2,5	16,8 $\pm$ 2,1	7,02	0,001	11,3 $\pm$ 2,4	11,7 $\pm$ 2,2	0,81	0,423
O'zini baholash darajasi	12,1 $\pm$ 2,8	17,6 $\pm$ 2,3	6,34	0,001	12,4 $\pm$ 2,5	13,0 $\pm$ 2,4	0,89	0,382
Umumiy moslashuv samaradorligi	105,1 $\pm$ 10,4	149,4 $\pm$ 9,6	8,27	0,001	107,4 $\pm$ 11,2	111,3 $\pm$ 10,8	1,22	0,236

Jadval natijalari eksperimental guruhda psixologik intervensiyalar o'tkazilgandan keyin barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy moslashuv umumiy indeksi, kommunikativ faollik va ijtimoiy tashabbus darajalaridagi o'sish statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p \leq 0,05$). Nazorat guruhida esa ko'rsatkichlar bo'yicha kichik o'zgarishlar qayd etilgan bo'lsa-da, ular statistik jihatdan ishonchli natija bermadi.



Shunday qilib, metodologik yondashuv va SPSS dasturi yordamida olingan natijalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarni tizimli qo'llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa amaliy psixologiya, logopediya va maxsus pedagogika yo'nalishlarida kompleks yordam dasturlarini kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish masalasi zamonaviy psixologiya, logopediya va maxsus pedagogika yo'nalishlarida ustuvor ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. O'tkazilgan nazariy va metodologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, nutqdagi buzilishlar faqat talaffuz yoki til tizimidagi qiyinchiliklar bilan chegaralanmaydi, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, emotsional holati, tengdoshlari bilan munosabatlari va jamiyatga moslashuv jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy cheklanishlar mavjud bo'lgan bolalarda kommunikativ faollikning pasayishi, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik, ijtimoiy tashabbusning sustligi va o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishi kabi holatlar ko'proq uchrashi aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili natijalari rus va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida nutq rivojlanishi bilan ijtimoiy moslashuv o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Nutq bolaning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini tashkil etuvchi asosiy vosita bo'lgani sababli undagi buzilishlar ijtimoiy tajribani egallash jarayonini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqotlar ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni faqat nutq nuqsonining o'zi bilan emas, balki bolaning psixologik holati, oilaviy muhit, ta'lim sharoiti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi bilan ham bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida qo'llanilgan psixologik diagnostika vositalari hamda statistik tahlil natijalari psixologik intervensiyalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini yaxshilashda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Intervension dasturlarni muntazam tashkil etish natijasida bolalarda kommunikativ faollik, emotsional barqarorlik, tengdoshlar bilan muloqot sifati, ijtimoiy tashabbus va o'zini baholash darajasi ijobiy tomonga o'zgargani kuzatildi. Bu esa psixologik yordam faqat muammoni kamaytirishga emas, balki bolaning ichki resurslarini faollashtirish va uning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari korreksion faoliyatning yuqori samaradorligi mutaxassislararo hamkorlik mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqishini ko'rsatdi. Psixolog, logoped, pedagog va ota-onalarning yagona maqsad asosida olib boradigan tizimli faoliyati bolalarning ijtimoiy integratsiyasini tezlashtiradi hamda ularning kundalik hayotga moslashish darajasini oshiradi. Ayniqsa, erta bosqichda tashkil etilgan psixologik qo'llab-quvvatlash keyingi rivojlanish natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar yordamchi emas, balki kompleks korreksion jarayonning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Psixologik yondashuvlarning tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi bolalarning kommunikativ salohiyatini oshirish, ijtimoiy moslashuvini mustahkamlash hamda ularning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda yosh xususiyatlari, nutq buzilishlarining turlari va intervension dasturlar davomiyligini hisobga olgan holda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa O'zbekiston sharoitida nutq buzilishlari mavjud bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. - Москва: Издательство "Смысл", 2005. - 512 с.
2. Выготский Л.С. Основы дефектологии. - Санкт-Петербург: Лань, 2003. - 654 с.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. - Москва: Издательство Московского университета, 1998. - 336 с.
4. Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. - Санкт-Петербург: Питер, 2008. - 624 с.
5. Левина Р.Е. Нарушения речи у детей дошкольного возраста. - Москва: Просвещение, 2005. - 223 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.